

MARKETING



ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL

MARKETING
INNOVATSIYA
BRENDING
SAVDO
RAQAMLI
TADQIQOT
BIZNES



№5 - SON

2025-YIL, MAY

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS





JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

www.marketingjournal.uz

ELEKTRON POCHTA:

info@marketingjournal.uz

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

INDEKSATSIYA



BOSH MUHARRIR

Xakimov Ziyodulla Axmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Yusupov Muxamadamin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

Soliyev Axmadjon Soliyevich, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

Ikramov Murad Akramovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

Zarova Elena Viktorovna, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

Akramov Tohir Abdurahmonovich, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Samadov Asqarjon Mishomovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

Sobirov Azizbek Avazbekovich, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Sadikov Shoxrux Shuxratovich, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

Musyeva Shoirazimovna, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

Djurabayev Otabek Djurabayevich, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

Karimova Shirin Zoxid qizi, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

Fayzullayev Javlonbek Sultonovich, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

Bobojonov Azizjon Babaxanovich, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

Allayarov Shamsiddin Amanullayevich, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

Jumayev Olimjon Sadulloevich, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

Kucharov Abrorjon Sobirjanovich, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

Nazarova Ra'no Rustamovna, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Usmonov Bunyod Aktam o'g'li, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

Dehqonov Burxon Rustamovich, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

Turobova Hulkar Rustamovna, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

Elektron nashr 582 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 31-mayda ruxsat etildi

MUNDARIJA

ASSESSMENT OF E-COMMERCE'S ROLE IN ECONOMIC DEVELOPMENT	8
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, Karimova Shirin Zoxid qizi, Sodiqova Dilafruz Zoxid qizi	
BIG DATA И АНАЛИТИКА ДЛЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО МОНИТОРИНГА	26
Маликов Шохрух Шокирович	
PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHDA USTUVOR ILMIY YONDASHUVLAR VA INNOVATSIYALAR	36
Nurimbetov Ravshan Ibragimovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK VA “YASHIL” IQTISODIYOT UYG‘UNLIGIDA “YASHIL” EKSPORT MODELINI JORIY ETISHNING ISTIQBOLLARI	46
Muratova Shohista Nimatullayevna	
QISHLOQ VA SHAHARLARDA ZAMONAVIY SAVDO SHAHOBCHALARINI RIVOJLANISHI VA ULARDA XIZMAT KO‘RSATISH MADANIYATINI OSHIRISHDA MARKETING TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	55
Soliyeva Gulbahor Axmadjanovna	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИСТИЧЕСКОГО ОБМЕНА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И КИТАЕМ	62
Мухитдинов Алим Изатуллаевич, Халилова Нодира Абдухамид кизи	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI	77
Saidqulova Firuza Farmonovna	
TO‘QIMACHILIK SANOATIDA EKSPORT MARKETINGI SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI	84
Bazarova Fayyoza Tuxtamurodovna	
IQTISODIY BARQARORLIKNI TA‘MINLASHDA INNOVATSION MENEJMENTNI O‘RNI	91
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
MARKETINGDA SUN‘IY INTELLEKTDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA TAHDIDLARI	102
Jo‘rabayev Ibragim	
O‘ZBEKISTONDA ELEKTRON TIJORATNING RIVOJLANISHI VA UNING AHAMIYATI	109
Jo‘rayeva Gulzira Ilhomjon qizi	
NAMANGAN VILOYATIDA XIZMATLAR BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION MARKETING STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQISH	116
Karimjanova Ra‘noxon Maxmudovna	

SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOXITIDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Musayeva Shoirazimovna, Usmonova Dilfuza Ixomovna, Usmanov Shaxzod Shoxruxovich	
SANOAT KORXONALARIDA KAPITAL MABLAG‘LARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI	135
Muxtarov Maxmudjon Marifovich	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТРАНСФОРМАЦИИ ТУРИСТИЧЕСКИХ УСЛУГ	142
Солиева Гулбахор Ахмаджановна	
LOYIHA BOSHQARUVIDA QO‘LLANILADIGAN USULLARNING TURLARI VA TAVSIFI.....	150
Po‘latov Shahron Axmedovich	
O‘ZBEKISTON HUDUDLARIDA BIOMAHSULOTLAR YETISHTIRISHNING HOLATI VA IQTISODIY SALOHİYATI.....	162
Soliyev Damirjon Nurmatovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINI DIVERSIFIKATSIYALASH OMILLARI.....	168
Qurbanov Ulug‘bek Erkinovich, Baxtiyorov Barhayotjon Azizjon o‘g‘li	
ПОВЕДЕНЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФИНАНСОВОГО ПОВЕДЕНИЯ НАСЕЛЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ И МЕЖДУНАРОДНЫЙ КОНТЕКСТ	174
Захарова Ирина Борисовна, Непейвода Андрей Николаевич	
“AN IN-DEPTH ANALYSIS OF CRITERIA FOR EVALUATING THE BUSINESS STABILITY OF INDUSTRIAL AND ENERGY ENTERPRISES: A COMPREHENSIVE CASE STUDY OF JV UZCHASYS’ LLC”	182
Mahsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
QORAQALPOG‘ISTONDA MEHMONXONA XO‘JALIGINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	188
Uralova Matlyuba	
O‘ZBEKISTON QURILISH SANOATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR: HOLAT VA RIVOJLANISH STRATEGIYALARI.....	194
Saidov Mash‘al Samadovich, Karimov Inomjon Ortikbaevich	
DIGITAL MARKETING FOR THE GREEN ECONOMY: TRENDS AND INNOVATIONS	206
Salayeva Quvonchoy Rustam qizi	
BLOKCHAYN TEXNOLOGIYASI ASOSIDA QIYMAT YARATISH RAQAMLI ZANJIRLARINI SHAKLLANTIRISH	214
Samadov Sevinchbek Dusbobo o‘g‘li	
MOSLASHUVCHAN (AGILE) VA YASHIL MENEJMENTNI RIVOJLANTIRISHNI ILMIY-NAZARIY JIHATLARI.....	224
Umarov Bexzod Batirovich	

MINTAQA XIZMAT KO'RSATISH TARMOQLARIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	232
Masharipova Manzura Alimbayevna	
TELEVIZYON REKLAMALARIDA RATSIONAL JOZIBADORLIK ELEMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	239
Safarov Alisher Yunusaliyevich	
RAQAMLI MARKETING VOSITALARIDAN B2B BOZORIDA FOYDALANISH SAMARADORLIGI.....	250
Samadov Askarjon Nishonovich, Shovdirov Toxirmalik Nafasovich	
MENEJMENT FANIDA BOSHQARUV MODELLARI VA ULARNING XUSUSIYATLARI.....	262
Toshimov Azizbek Hakimovich	
OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI BREND QIYMATINI YARATISHNING KONSEPTUAL JIHATLARI	270
Xodjiyev Ibroxim Ikramovich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR OQIMLARINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI VA YONDASHUVLARI	278
Nasritdinova Gulchexra Abdurashitovna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINI HIMOYALASHDA RISKLARNI BOSHQARISH YO'LLARI	288
Absamatov Anvar Ergashevich	
TIJORAT BANKLARIDA DIVIDENT SIYOSATINING NAZARIY ASOSLARI.....	296
Aliyev G'ulomnozir Maxamatjonovich	
O'ZBEKISTON METEOROLOGIYA XIZMATIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA BIG DATA TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI	304
Anvarova Muqaddas Mahammadjanovna, Abduganiyeva Mavjuda Asattulayevna	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLİYAVIY XIZMATLARIDAN FOYDALANISHNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI	311
Babamatov Tolib Hakimovich	
FERMER XO'JALIKLARIDA MARKETING STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH VA RAQOBATDOSHLIKNI OSHIRISH OMILLARI	318
Baxtiyor Negmatovich Navruz-zoda, Nazarova Gulruh Umarjonovna	
FARMASEVTIKA MAHSULOTLARI BOZORIDA KOMPANIYANING MIJOZLAR BILAN MUNOSABATLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	326
Bobojonov Baxrombek Ruzimovich	
MAHALLIY VA XORIJIY TURISTLAR UCHUN O'ZBEKISTONDA ALTERNATIV TURIZM TURLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	334
Egamnazarov Khusniddin	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF IMPLEMENTING ARTIFICIAL INTELLIGENCE TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS.....	347
Shoakhmedova Nozima Khairullaevna, Yusupova Dilbar Mirabidovna	

QISHLOQ XO‘JALIGI BUXGALTERIYASIDA BIOLOGIK AKTIVLARLARNI TAN OLISH MEZONLARI VA UNING KLASSIFIKATSIYASI.....	353
Tursunkulova Gulchiroy Burxonovna	
TIJORAT BANKLARI VALYUTA OPERATSIYALARI VA ULARNING TASNIFLANISHI	362
Yusupov Aziz Shuhratovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ УПРАВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКИМИ ОТХОДАМИ В СИСТЕМЕ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И САНИТАРНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ.....	369
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
RAQAMLI CRM TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTON BIZNES MUHITIDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI	380
Mirziyodova Gulnozaxon Ayubxon qizi	
COST OF CAPITAL. AS A CASE OF UZBEKISTAN COMPANY	391
Khurshid Khudoykulov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA STRATEGIK BOSHQARUVNING NAZARIY ASOSLARI.....	399
Musaxonov Rustam Musaxon o‘g‘li	
KORXONA MAHSULOTLARI ELEKTRON SAVDOSINI BOSHQARISH STRUKTURASI	406
Tuychiyev Shavkatjon Shokirali o‘g‘li, O‘ktamov Xamidillo Xabibillo o‘g‘li	
O‘ZBEKISTONDA DAVLAT BOSHQARUVLARINI RAQAMLIGA O‘TKAZISH: TAJRIBASI VA ISTIQLABLARI.	414
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA YO‘NALTIRILGAN MARKETING STRATEGIYALARI	419
Maxmudov Tohirjon Olimjonovich	
INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH VA KREATIVLIK QOBILIYATLARINI RAG‘BATLANTIRISH: JAHON TAJRIBASI TAHLILI	429
Hulkar Turobova, Shahlo Musulmonova	
TAX DISCIPLINE AND ITS INFLUENCE ON FINANCIAL SECURITY	441
Shamsiddin Allayarov Amanullaevich	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA STRATEGIK MENEJMENTNING SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING SKORING TIZIMI	450
Mamatraimov Islom Mamanazarovich	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ ВЫСШИМИ УЧЕБНЫМИ ЗАВЕДЕНИЯМИ	460
Бадалова Лола Борисовна	
ЭФФЕКТИВНОСТЬ МАРКЕТИНГА В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ СТОИМОСТЬЮ КОМПАНИИ	468
Уралов Акбарали Бабаназарович	
STAGES OF FOOD BRAND FORMATION IN THE FOOD MARKET	478
Eshmatov Sanjar Azimkulovich	

ONLAYN SAVDO MAYDONCHALARIDA TOVARLAR SAVDOSINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI SAMARALI QO‘LLASH USULLARI	489
Baxromov Xudoyor Xabibullo o‘g‘li	
ULGURJI SAVDODA MARKETING LOGISTIKASINI RIVOJLANTIRISHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	497
Xolmamatov Diyor Haqberdiyevich	
MOLIYAVIY XAVFSIZLIK SOHASIDA XALQARO HAMKORLIK VA UNING SAMARADORLIGI.....	511
Axmedov Bexzod Shuxratovich	
MAMLAKATDA RAQAMLI XIZMATLARNI RIVOJLANISHI VA UNING HUQUQIY VA IJTIMOY-IQTISODIY ASOSLARI	518
Xakimdjanova Dildora Kamilevna	
XIZMAT KO‘RSATISH KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	529
Narzullayeva Ozoda Qahramon qizi	
MADANIYAT SOHASI MUASSASALARINI AUDITDAN O‘TKAZISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	535
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
INNOVATSION RIVOJLANISH VA RAQAMLI IQTISODIYOT: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR	541
Fayzullayev Jonibek Mambetsaliy o‘g‘li, Ollayorov Behruzbek Sardor o‘g‘li	
MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION JOZIBADORLIGI YUQORI BO‘LGAN HUDUDLARDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI	547
Astanov Sherzod Rustamovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA BOSHQARUV QARORLARINI TAKOMILLASHTIRISHDA QIYMATGA ASOSLANGAN BUDJETLASHTIRISH TIZIMINI TASHKIL ETISH	556
Sobirov Shoyadbek Kurbonaliyevich	
MILLIY TRANSPORT-LOGISTIKA TIZIMINI RAQOBATBARDOSH QILISHDA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA STRATEGIYALAR	564
Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o‘g‘li	
MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	571
Mamadjanova Tuyg‘unoy Axmadjanovna	

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA STRATEGIK MENEJMENT YONDASHUVLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MEXANIZMLARI

Saidqulova Firuza Farmonovna

Buxoro davlat universiteti

Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası dotsenti

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik menejment yondashuvlaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari chuqur tahlil qilinadi. Raqamli transformatsiya jarayonining samaradorligini oshirishda strategik rejalashtirish, innovatsion boshqaruv yondashuvlari va zamonaviy texnologiyalarning oʻzaro integratsiyasi muhim omil sifatida koʻrib chiqiladi. Maqolada shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonidagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari, xorijiy va mahalliy tajriba misolida oʻrganilib, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish boʻyicha amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalari strategik menejment vositalari yordamida raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini taʼminlash imkoniyatlarini koʻrsatadi.

Kalit soʻzlar: Raqamli iqtisodiyot, strategik menejment, transformatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar, raqamli texnologiyalar, innovatsion yondashuvlar, Oʻzbekiston, korxona boshqaruvi, raqamli transformatsiya, davlat strategiyasi.

Аннотация

В данной статье всесторонне проанализированы социально-экономические механизмы использования подходов стратегического менеджмента в условиях цифровой экономики. Стратегическое планирование, инновационные управленческие подходы и интеграция современных технологий рассматриваются как важнейшие факторы повышения эффективности процесса цифровой трансформации. Также в статье исследуются актуальные проблемы цифровой трансформации и пути их решения на примере отечественного и зарубежного опыта, а также даны практические рекомендации по совершенствованию социально-экономических механизмов. Результаты исследования демонстрируют возможности обеспечения устойчивого развития цифровой экономики с использованием инструментов стратегического менеджмента.

Ключевые слова: Цифровая экономика, стратегический менеджмент, трансформация, социально-экономические механизмы, цифровые технологии, инновационные подходы, Узбекистан, управление предприятием, цифровая трансформация, государственная стратегия.

Abstract

This article comprehensively analyzes the socio-economic mechanisms of using strategic management approaches in the context of the digital economy. Strategic planning, innovative management approaches, and the integration of modern technologies are considered crucial factors for improving the effectiveness of the digital transformation process. The article also examines the current issues of digital

transformation and ways to solve them, using both domestic and international experience, as well as providing practical recommendations for improving socio-economic mechanisms. The research results demonstrate the potential for ensuring the sustainable development of the digital economy through the use of strategic management tools.

Keywords: Digital economy, strategic management, transformation, socio-economic mechanisms, digital technologies, innovative approaches, Uzbekistan, enterprise management, digital transformation, state strategy.

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti global iqtisodiyotning barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi natijasida raqamli iqtisodiyot shakllanib, u ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, boshqaruv va iste'mol jarayonlarining ajralmas qismiga aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyot — bu raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimidir.

O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va strategik boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va strategik menejment yondashuvlarini tatbiq etish ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilangan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik menejment yondashuvlarining ahamiyati ortib bormoqda. An'anaviy boshqaruv uslublari tez o'zgaruvchan raqamli muhitda samaradorligini yo'qotmoqda. Shu sababli, korxonalar va tashkilotlar raqamli transformatsiyani boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun yangi strategik yondashuvlarni qabul qilishga majbur. Strategik menejmentning zamonaviy yondashuvlari, xususan, dinamik qobiliyatlar nazariyasi (dynamic capabilities), xizmatga yo'naltirilgan mantiq (service-dominant logic) va algoritmik boshqaruv (algorithmic management) raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim vositalarga aylanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotda strategik menejment yondashuvlaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari raqamli infratuzilmani rivojlantirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish, keng polosali internet tarmog'ini kengaytirish hamda raqamli xizmatlar doirasini kengaytirish orqali iqtisodiy o'sishni jadallashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, inson kapitalini rivojlantirish, raqamli kompetensiyalarni oshirish, ta'lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion fikrlashni rag'batlantirish orqali mehnat bozorining raqamli iqtisodiyot talablariga moslashuvchanligini ta'minlash imkoniyati yaratiladi. Shuningdek, innovatsion ekotizimni shakllantirish, startaplar, ilmiy-tadqiqot muassasalari va sanoat korxonalari o'rtasida kooperatsiyani kuchaytirish yangi texnologiyalarni joriy etish va ularni tijoratlashtirish jarayonlarini qo'llab-quvvatlaydi. Davlat boshqaruvi sohasida esa raqamli boshqaruv tamoyillarini joriy etish, elektron hukumat tizimlarini

rivojlantirish va ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Ushbu mexanizmlar orqali raqamli iqtisodiyotda strategik menejment yondashuvlaridan samarali foydalanish, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, ijtimoiy farovonlikni oshirish va global raqobatbardoshlikni ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun tashkilotlar o'z strategiyalarini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish, yangi texnologiyalarni joriy etish va bozor talablariga moslashish zarur. Bu esa strategik menejment yondashuvlarining ahamiyatini yanada oshiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mahalliy olimlarimizdan N. Kuziyeva va F. Xusanov mualliflar raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llarini tahlil qilib, raqamli transformatsiya jarayonlarida strategik menejmentning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Ular Sanoat 4.0 doirasida raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga e'tibor qaratadilar [1]. A. Bektemirov raqamli iqtisodiyotning O'zbekistonda rivojlanish istiqbollarini o'rganib, raqamli texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini tahlil qiladi. Uning fikricha, raqamli transformatsiya strategik menejment yondashuvlarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi [2]. S.S. Gulyamov va boshqa mualliflar raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalarining ahamiyatini yoritib, ularning strategik boshqaruvdagi o'rnini ko'rsatadilar. Ular blokcheyn texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi rolini ta'kidlaydilar [3].

Xorijiy olimlardan E. Michael Porter, R. Mark va Kramer "Creating Shared Value" konsepsiyasini ilgari surib, kompaniyalar ijtimoiy muammolarni hal qilish orqali iqtisodiy foyda olishlari mumkinligini ta'kidlaydilar. Ular strategik menejmentda ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni integratsiya qilish zarurligini ko'rsatadilar [4]. Yochai Benkler "The Wealth of Networks" asarida tarmoq iqtisodiyoti va "commons-based peer production" konsepsiyasini yoritadi. U raqamli iqtisodiyotda axborot almashinuvi va hamkorlik asosida yangi iqtisodiy modelni taklif qiladi [5]. Vargo va Lusch mualliflar "Service-Dominant Logic" konsepsiyasini ishlab chiqib, xizmat ko'rsatish va qiymat yaratish jarayonlarining o'zaro bog'liqligini tahlil qiladilar. Ular strategik menejmentda xizmatga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyatini ta'kidlaydilar [6].

METODOLOGIYA

Maqolada ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, tahlil va sintez, sohaga oid mavjud adabiyotlarni tahlil qilish, Prezidentimizning farmon va qarorlari, qonun hamda tadqiqot mavzusiga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

XXI asrda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti global iqtisodiyotning barcha jabhalariga chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) jadal rivojlanishi natijasida raqamli iqtisodiyot shakllanib, u ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, boshqaruv va iste'mol jarayonlarining ajralmas qismiga

aylanmoqda. Raqamli iqtisodiyot — bu raqamli axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy munosabatlar tizimidir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekistonni barpo etishda eng muhim omil — bu bilimli, fidoyi va zamonaviy fikrlovchi avlodni tarbiyalashdir”. Ushbu yondashuv asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va strategik boshqaruv tizimlarini takomillashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotda strategik menejmentning ahamiyati ortib bormoqda. An’anaviy boshqaruv uslublari tez o‘zgaruvchan raqamli muhitda samaradorligini yo‘qotmoqda. Shu sababli, korxonalar va tashkilotlar raqamli transformatsiyani boshqarish, innovatsiyalarni joriy etish va raqobatbardoshligini saqlab qolish uchun yangi strategik yondashuvlarni qabul qilishga majbur. Strategik menejmentning zamonaviy yondashuvlari, xususan, dinamik qobiliyatlar nazariyasi (dynamic capabilities), xizmatga yo‘naltirilgan mantiq (service-dominant logic) va algoritmik boshqaruv (algorithmic management) raqamli iqtisodiyotda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun muhim vositalarga aylanmoqda[4].

Raqamli iqtisodiyotda strategik menejment yondashuvlaridan foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: AKT sohasidagi investitsiyalarni oshirish, keng polosali internet tarmog‘ini kengaytirish va raqamli xizmatlar ko‘lamini kengaytirish orqali iqtisodiy o‘sishni ta’minlash.
- Inson kapitalini rivojlantirish: Raqamli ko‘nikmalarni oshirish, ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va innovatsion fikrlashni rag‘batlantirish orqali mehnat bozorining raqamli iqtisodiyotga moslashuvchanligini ta’minlash.
- Innovatsion ekotizimni yaratish: Startaplar, ilmiy-tadqiqot markazlari va sanoat korxonalari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirish orqali yangi texnologiyalarni joriy etish va tijoratlashtirishni qo‘llab-quvvatlash.
- Raqamli boshqaruvni joriy etish: Davlat xizmatlarini raqamlashtirish, elektron hukumat tizimlarini rivojlantirish va ma’lumotlar asosida qarorlar qabul qilish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish[5].

Mahalliy olimlar, masalan, Kuziyeva N. va Xusanov F., raqamli iqtisodiyotda innovatsiyalarning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo‘llarini tahlil qilib, raqamli transformatsiya jarayonlarida strategik menejmentning ahamiyatini ta’kidlaydilar. Xorijiy olimlar, masalan, Erik Brynjolfsson, raqamli texnologiyalar va sun’iy intellektning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini o‘rganib, raqamli transformatsiya jarayonlarida strategik menejmentning ahamiyatini ta’kidlaydilar[10].

O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha qator strategik hujjatlar qabul qilingan. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida raqamli transformatsiya, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va strategik menejment yondashuvlarini tatbiq etish ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilangan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotda strategik menejment yondashuvlaridan foydalanish bo‘yicha qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

1-jadval.

Raqamli iqtisodiyotda strategik menejment muammolari va yechimlari¹

№	Muammo	Tavsif	Yechim
1	O'zgarishlarni boshqarish strategiyasining yetishmasligi	Ko'plab tashkilotlar raqamli transformatsiyani amalga oshirishda aniq strategiyaga ega emaslar, bu esa jarayonni murakkablashtiradi .	O'zgarishlarni boshqarish bo'yicha aniq strategiyani ishlab chiqish, xodimlarni jalb etish va ularni yangi texnologiyalarga moslashtirish uchun treninglar o'tkazish .
2	Murakkab dasturiy ta'minot va texnologiyalar	Yangi texnologiyalarni joriy etishda ularning murakkabligi va mavjud tizimlarga mos kelmasligi muammolarni keltirib chiqaradi .	Texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, moslashuvchan va integratsiyalashgan tizimlarni tanlash orqali muammolarni bartaraf etish.
3	Yangi vosita va jarayonlarni qabul qilishdagi qiyinchiliklar	Xodimlar yangi vosita va jarayonlarga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, bu esa samaradorlikni pasaytiradi .	Xodimlarga yangi texnologiyalarni o'rgatish bo'yicha treninglar tashkil etish, ularni o'zgarishlarga tayyorlash uchun motivatsion dasturlarni joriy etish.
4	Mijozlar ehtiyojlarining doimiy o'zgarishi	Raqamli muhitda mijozlar ehtiyojlari tez o'zgaradi, bu esa kompaniyalardan doimiy moslashuvchanlikni talab qiladi .	Mijozlar bilan doimiy aloqada bo'lish, ularning fikr-mulohazalarini yig'ish va mahsulot yoki xizmatlarni tezkor ravishda moslashtirish.
5	Raqamli transformatsiya strategiyasining yo'qligi	Ko'plab tashkilotlar raqamli transformatsiya bo'yicha aniq strategiyaga ega emaslar, bu esa raqobatbardoshlikni pasaytiradi .	Raqamli transformatsiya bo'yicha aniq strategiyani ishlab chiqish, uni tashkilotning umumiy strategiyasiga integratsiyalash.
6	IT ko'nikmalarining yetishmasligi	Xodimlar orasida zarur IT ko'nikmalarining yetishmasligi raqamli transformatsiyani sekinlashtiradi .	Xodimlar uchun IT bo'yicha treninglar tashkil etish, malaka oshirish dasturlarini joriy etish.
7	Xavfsizlik muammolari	Raqamli tizimlarning xavfsizligi bilan bog'liq muammolar tashkilotlar uchun katta tahdid bo'lib qolmoqda .	Kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish, xavfsizlik protokollarini kuchaytirish va xodimlarni xavfsizlik bo'yicha o'qitish.
8	Byudjet cheklovlar	Raqamli transformatsiya uchun zarur bo'lgan investitsiyalar yetishmasligi jarayonni sekinlashtiradi .	Moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirish, investitsiyalarni jalb etish va resurslarni samarali taqsimlash.
9	Korporativ madaniyatning o'zgarishlarga qarshiligi	Tashkilot ichida o'zgarishlarga qarshi turish madaniyati mavjud bo'lishi raqamli transformatsiyani qiyinlashtiradi .	O'zgarishlarga ochiq madaniyatni rivojlantirish, xodimlarni o'zgarishlarga tayyorlash va ularni jarayonga jalb etish.
10	Tashkilot ichidagi bo'linmalar o'rtasida aloqaning yetishmasligi	Bo'linmalar o'rtasida aloqa va hamkorlikning yetishmasligi raqamli transformatsiyani sekinlashtiradi .	Bo'linmalar o'rtasida samarali aloqa va hamkorlikni ta'minlash uchun integratsiyalashgan tizimlarni joriy etish.

Raqamli transformatsiya jarayonida tashkilotlar ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Ular orasida o'zgarishlarni boshqarish strategiyasining yetishmasligi, murakkab texnologiyalarni joriy etishdagi qiyinchiliklar, xodimlarning yangi vosita va jarayonlarga moslashishdagi muammolari, mijozlar ehtiyojlarining tez o'zgarishi,

¹ Muallif ishlanmasi

raqamli transformatsiya strategiyasining yoʻqligi, IT koʻnikmalarining yetishmasligi, xavfsizlik muammolari, byudjet cheklovlari, korporativ madaniyatning oʻzgarishlarga qarshiligi va boʻlinmalar oʻrtasida aloqaning yetishmasligi kabi masalalar mavjud. Ushbu muammolarni hal etish uchun tashkilotlar quyidagi choralarni koʻrishlari zarur: oʻzgarishlarni boshqarish boʻyicha aniq strategiyalar ishlab chiqish, texnologik infratuzilmani modernizatsiya qilish, xodimlarga yangi texnologiyalarni oʻrgatish boʻyicha treninglar tashkil etish, mijozlar bilan doimiy aloqada boʻlish, raqamli transformatsiya boʻyicha aniq strategiyalar ishlab chiqish, xodimlar uchun IT boʻyicha treninglar tashkil etish, kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish, moliyaviy rejalashtirishni takomillashtirish, oʻzgarishlarga ochiq madaniyatni rivojlantirish va boʻlinmalar oʻrtasida samarali aloqa va hamkorlikni taʼminlash. Shuningdek, tashkilotlar raqamli transformatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun strategik menejment yondashuvlaridan foydalanishlari zarur. Bu esa oʻzgarishlarga moslashish, raqobatbardoshlikni oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni taʼminlashga xizmat qiladi [5,6].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik menejment yondashuvlaridan foydalanish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biridir. Mahalliy va xorijiy tajribalar shuni koʻrsatadiki, raqamli transformatsiya jarayonlarida strategik menejmentning ahamiyati ortib bormoqda. Oʻzbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish boʻyicha qabul qilingan strategik hujjatlar va olib borilayotgan islohotlar ushbu yoʻnalishda muhim qadamlar boʻlib xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi tashkilotlar va davlatlar oldiga yangi strategik yondashuvlar va ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini qoʻymoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi va 2022–2026-yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekiston taraqqiyot strategiyasi raqamli transformatsiyani milliy rivojlanishning ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida belgilaydi.

Strategik menejment yondashuvlari raqamli iqtisodiyot sharoitida tashkilotlarning moslashuvchanligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va raqobatbardoshlikni taʼminlashda muhim rol oʻynaydi. Bu yondashuvlar orqali tashkilotlar raqamli texnologiyalarni joriy etish, inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion yechimlarni tatbiq etish imkoniyatiga ega boʻladilar. Ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlar esa raqamli transformatsiyaning jamiyat va iqtisodiyotga taʼsirini muvofiqlashtirishda xizmat qiladi. Masalan, raqamli infratuzilmani rivojlantirish, IT sohasida malakali kadrlarni tayyorlash, elektron hukumat tizimlarini kengaytirish va raqamli xizmatlardan foydalanishni ommalashtirish orqali iqtisodiy oʻsish va ijtimoiy farovonlikka erishish mumkin.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik menejment yondashuvlaridan foydalanish orqali:

- Tashkilotlar raqamli texnologiyalarni tez va samarali joriy eta oladilar;
- Xodimlarning raqamli koʻnikmalarini oshirish orqali inson kapitali rivojlanadi;
- Mijozlar ehtiyojlariga moslashgan xizmatlar koʻrsatish imkoniyati yaratiladi;

- Raqobatbardoshlik va innovatsion salohiyat kuchayadi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida strategik menejment yondashuvlari va ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarni uyg'unlashtirish orqali O'zbekistonning barqaror iqtisodiy o'sishi, ijtimoiy farovonligi va global raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupov, R. H., & Boltaboeva, G. R. (2020). Raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent: TMI.
2. Abdullajonov, D. (2022). Raqamli texnologiyalar orqali Yangi O'zbekistonning iqtisodiyotini rivojlantirish. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000006).
3. Kurpayanidi, K. I., & Ilyosov, I. (2021). Raqamli iqtisodiyotning bugungi holati: muammo va istiqbollar. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 1(33), 45–52.
4. Raxmonov, N. R. (2022). Raqamli texnologiyalarning Yangi O'zbekiston rivojiga ta'siri. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 1(2), 36–42.
5. Raqamli iqtisodiyot sharoitida menejment strategiyalaridan foydalanish mexanizmlari. (2023). Raqamli Iqtisodiyot ilmiy-elektron jurnali, 1(1), 15–22.
6. Ayupov, R. H., & Boltaboeva, G. R. (2020). Raqamli iqtisodiyot asoslari. Toshkent: TMI.
7. Abdullajonov, D. (2022). Korxonada xodimlarning mehnat motivatsiyasini kuchaytirishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Qo'qon universitetining ilmiy materiallar bazasi, 1(000005).
8. Digital economy as a tool for reducing uncertainty in strategic management decisions. (2020). Proceedings of the 2020 International Conference on Digital Transformation and Global Society, 1(1), 123–130.
9. Digital economy, green innovation and high-quality economic development. (2025). Journal of Business Research, 1(1), 45–58.
10. Development of strategic mechanisms for high-tech enterprises in the digital economy environment. (2023). International Journal of Advanced Research in Engineering and Technology, 14(1), 89–96.
11. The role of the digital economy in rebuilding and maintaining social governance mechanisms. (2022). Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity, 8(1), 1–15.
12. Digital transformation and socio-economic development in emerging economies. (2025). Technological Forecasting and Social Change, 1(1), 67–75.
13. Improved policy mechanisms for the promotion of future digital economy. (2021). Electronic Commerce Research, 21(3), 345–360.
14. Strategic vectors for enterprise development in the context of the digital economy. (2022). Postmodern Openings, 13(1), 112–125.
15. Developing responsible digital economy. (2021). Bulletin of the Chinese Academy of Sciences, 36(3), 45–52.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2025-yil, may, 5-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**